

## TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI JAMIYAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

**Homidova Shaxnoza Toxirovna**

*Farg'ona ICHSHUI kasb-hunar maktabi  
maxsus fan o'qituvchisi*

**Anotatsiya:** *Ta'lim tizimida raqamli iqtisodiyotni jamiyat rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiya, xufiyona iqtisodiyot*

21-asr kompyuter asrida jamiyatimizda raqamli texnologiyalarning ahamiyati tobora ortmoqda. Ularning keng joriy qilinishi va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari hozirgi zamonda har bir davlat uchun jiddiy hayotiy masalaga aylangan

Bugungi zamonda raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalari taraqqiyotga erishishning muhim shartlaridan biridir. Raqamli texnologiyalar nafaqat davlat va jamiyat boshqaruvini takomillashtiradi va ijtimoiy sohada odamlarga katta qulayliklar yaratadi. Bundan tashqari raqamli texnologiyalar ijobiy iqtisodiy o'sishiga zamin yaratadi: mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi va yana bir muhim afzallik — korrupsiyaga chek qo'yadi. Ekspertlar fikricha, kelgusi 3 yilda iqtisodiyotni raqamlashtirish orqali dunyodagi 22 foiz ish o'rni axborot texnologiyalari yordamida yaratiladi.

Raqamli iqtisodiyotdan birinchi navbatda, korrupsiyadan xoli hududda ishlash imkoniyatini yaratadi. U "xufiyona iqtisodiyot" ning asosiy kushandasidir. Chunki raqamlar hamma narsani muhrlaydi, xotirada saqlaydi. Kerak paytda ma'lumotlarni tez taqdim etadi. Bunday sharoitda biror ma'lumotni berkitish, yashirin bitimlar tuzish, u yoki bu faoliyat haqida to'liq axborot bermaslikning iloji qolmaydi. Buning natijasida esa iqtisodiyotga yo'naltirilgan qonuniy mablag'lar joy-joyiga sarflanadi va quyidagi natijalarga erishamiz:

- soliqlarning o'z vaqtida to'g'ri hisoblanishi va to'lanishi
- byudjet taqsimoti oshkoraligi erishish;
- ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan mablag'lar, maktablar, shifoxonalar, yo'llarga ajratilgan pullar to'liq o'z manziliga maqsadli yetib borishiga zamin yaratiladi.
- Shu bois, raqamli texnologiyalarni bizni taraqqiyotga eltadigan eng qisqa yo'l, deya atash g'oyat oqilona va odilona ta'rif bo'ladi.

**"Raqamli O'zbekiston — 2030"** strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

2020 yil 28 aprel kuni Prezidentimizning “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarori qabul qilindi. Unga ko`ra, 2023 yilga borib raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 2 baravar va ushbu sohadagi xizmatlar hajmini 3 baravar oshirish hamda ularning eksportini 100 million AQSh dollariga yetkazish nazarda tutilgan.

Shu bilan birga, 2020–2022 yillarda elektron hukumat, telekommunikatsiyalar, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki faoliyatini yanada rivojlantirish, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarida hamda qishloq va suv xo`jaligida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bo`yicha 268 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilmoqda. Mazkur vazifalarning bajarilishi yurtimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta`sir ko`rsatadi.

### **Fuqarolar uchun qulay onlayn davlat xizmatlarini ko`rsatish bo`yicha qanday dolzarb vazifalarni bajarish zarur?**

— Aholi va tadbirkorlik sub`ektlarining davlat organlari bilan kontaktsiz aloqa shakllarini yanada rivojlantirish maqsadida **Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali** ishlab chiqildi (<https://my.gov.uz>).

**Bosh vazirning tadbirkorlar murojaatlarini ko`rib chiqish virtual qabulxonasi** “[business.gov.uz](https://business.gov.uz)” portali ishga tushirildi.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini barcha manfaatdor vazirliklar, idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga ko`rib chiqish, elektron raqamli imzodan foydalangan holda kelishish uchun, shu jumladan bir vaqtning o`zida keng jamoatchilik va mutaxassislar muhokamasini o`tkazish va tezkor jo`natish uchun vaqtni va mehnat resurslarini sezilarli darajada tejash maqsadida yagona elektron tizimi “[project.gov.uz](https://project.gov.uz)” joriy etildi.

Bundan tashqari, Avtomobil transportida yo`lovchilarni va yuklarni tashish xizmati uchun litsenziyag berish, Abituriyentlardan hujjatlarni onlayn qabul qilish, Ipoteka kreditiga davlat subsidiyasi va o`qish joyidan ma`lumotnoma olish xizmatlari ham yaratildi.

Hukumat organlari va aholi o`rtasida samarali qayta muloqot tizimi o`rnatilishi eng yorqin misollaridan biri sifatida ishga tushgan “**Mening fikrim**” **Jamoaviy murojaatlar portalini** ko`rsatish mumkin.

Xulosa o`rnida aytish mumkinki, bu kabi yirik loyihalarga start berilgani ilm, ma`rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yilida raqamli texnologiyalarning hayotimizdagi o`rni va rolini, ularning yurtimiz bo`ylab qamrovini jadal sur`atda oshiradi.

Tizim muntazam rivojlanyapti, keng ko`lamli va kompleks loyihalar amaliyotga joriy etilmoqda. Shu bilan birga, hali oldimizda bajarilishi zarur bo`lgan muhim vazifalar turibdi.

2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasi ijrosini ta`minlash, shuningdek, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi,

parlament palatalari qo'shma majlisi va tashkiliy yig'ilishlarida belgilangan vazifalarni samarali va o'z vaqtida amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda

Yoshlar ta'limi va ayollar bandligi bo'yicha "Besh tashabbus" loyihasi doirasida 2020 yil 1 sentyabrdan boshlab alohida umumta'lim muassasalarida bolalarni maktab fanlariga elektron o'qitish bo'yicha, shu jumladan, elektron sinf jurnali, o'quvchilar kundaliklarini raqamlashtirish va elektron materiallar kutubxonasini (darsliklar, video darslar, virtual laboratoriyalar va boshqalar) o'z ichiga olgan tajriba tariqasida axborot tizimlarini qog'oz hujjatlarni bekor qilgan holda joriy etish hamda O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

bilan birgalikda ekspertlar, shu jumladan, xorijiy ekspertlar ishtirokida ma'lumotlar haqidagi fan, ulkan ma'lumotlar, sun'iy intellekt kabi yo'nalishlarda

kadrlar tayyorlashni nazarda tutgan holda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va multimedia resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish orqali ta'lim-tarbiya jarayoninin sifatini oshirish belgilangan.

Raqamli jamiyat-bu birinchi navbatda global loyiha bo'lib, bu loyihaning maqsadi mikroelektronika, lokal va global kompyuter tarmoqlarini ishlatishga asoslangan holda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali boshqarishdir. Shuning uchun raqamli jamiyat aslida tarmoqli axborotlashgan

jamiyat hisoblanadi.

Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini

rivojlantirish, vebinar, onlayn, "blended learning", "flipped classroom" texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etishni taqozo etmoqda.

Bu texnologiyalar odatda quyidagi multimedia komponentlardan iborat bo'ladi:

- masofaviy o'qitish va o'quv materiallarni almashish uchun onlayn platforma;
- video va audio resurslar, matnlar;
- interfaol taqdimotlar;
- avtomatlashgan test dasturlari;
- virtual laboratoriyalar;
- professor-o'qituvchilarni talabalar bilan onlayn muloqoti [1].

So'nggi yillarda ta'limda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish masalasi tobora kuchayib bormoqda. Bular nafaqat yangi texnik vositalar, balki o'qitishning yangi shakllari va usullari, o'quv jarayoniga video darslar orqali yangicha yondashuvdir. Pedagogik jarayonga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish o'qituvchining

jamoadagi obro'sini oshiradi, chunki o'qitish zamonaviy, yuqori darajada olib boriladi. Bundan tashqari, o'qituvchining

o'ziga bo'lgan hurmati, kasbiy vakolatlarini rivojlantiradi video darslarda esa bularga yonmayon tarzda ommaviylik ham namoyon boladi. Axborot texnologiyalari sohasidagi kadrlarni tayorlash tizimini takomillashtirish Video dars - bu multimedia texnologiyalari yordamida bilimlarni uzatish jarayoni. Bu holatda o'qituvchining rolini tirik odam emas, balki virtual yoki ekrandagi ovoz o'ynaydi. Darsning odatiy shaklidan farqli o'laroq, video dars – bu yanada qiziqarli o'quv jarayoni [2].

O'rgatuchi video darslarni yaratishga mo'ljallangan bir qancha, ya'ni SmartCapture, ActivePresenter, SMRecorder, Weeny Free Video Recorder, PremierPro, Camtasia Studio, Movavi Screen Capture Studio, Bandicam kabi dasturlar mavjud. Bu dasturlarni imkoniyatlarini o'rganib chiqib, eng avvalam bor

ommabop va soda interfeysga ega bo'lgan Camtasia Studio dasturi o'rgatuvchi video darslar yaratishning eng maqbul dasturi sifatida tanlab olindi. Camtasia Studio – video darsliklar, taqdimotlar va boshqa shunga o'xshash kuzatuvchilarga

namoyish etiladigan materiallar yaratish uchun mo'ljallangan.

Video darsli o'quv kurslarining pedagogik-psixologik xususiyatlari bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun foydalaniladigan o'quv materiallarining tasvirlanish hamda ifodalanish formasiga va ko'rinishiga bog'liq bo'ladi. Ular faqatgina misol va masalalar yechish, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish jarayonidagina emas, balki butun o'quv jarayonida o'quvchilarni bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilishi lozim.

Ta'lim tizimi uchun video darsli o'quv kurslarini yaratishda shu sohaning asosiy didaktik masalalaridan biri – o'qitishni modellashtirish va tasavvurlash obyektlariga ta'sir qilishning umumiy metodlari muhim o'rinlardan birini egallaydi.

Shunday qilib, video darsning shakli muntazam darsning deyarli barcha ananaviy tamoyillarini takrorlaydi. Faqatgina muhim farq bu shakl. Video darsidagi klassik dars shaklini o'zgartirishdagi eng katta yutuq mustaqil ta'limda kuzatiladi. Ayni paytda Internet olami barcha turdagi video darslarning "ombori"dir.

Zero, O'zbekistonning taraqqiyoti raqamli texnologiyalarning barcha soha va tarmoqlarga joriy etilishi va qo'llanishiga uzviy bog'liqdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Hamdamov R., Begimqulov U., Tayloqov N. Ta'limda axborot texnologiyalari. Oliy ta'lim muassasalari uchun / R.Hamdamiyov, U.Begimqulov, N.Tayloqov. O'zME davlat ilmiy nashriyoti. -T.: 2010,120 b.  
Polat E.S. New Pedagogical and Information Technologies in Educational System [Text] / E.S. Polat.-, 2008. - 272 p.
2. Гордеева И.В., Мультимедиа технология, Новосибирск СГГА, 2010, – 158 с.
3. Набиулина Л.М., Абдурахманова Ш.А. Мультимедийные системы и технологии. Учебник. – ГРИФ № 603-161.–Т.: Навруз, 2019. – С.160.